



Korporativ etika kodeksi va biznes etikasi



IntegrityLine:

1-877-272-9726 (AQSH va Kanada)
Mahalliy raqamlar va hisobotlar
bo'yicha ko'rsatmalar uchun
www.airproducts.com/integrityline



IntegrityOnline: www.airproducts.com/integrityonline

Umumiy ma'lumot

Yaxlitlik – bu Air Products kompaniyasining asosiy qadriyati va unga nisbatan aslo murosaga yo'l qo'yilmaydigan jihat. Etika qoidalarini buzishga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu Korporativ etika kodeksi va biznes etikasiga ("Kodeks") amal qilinmasligi yuzasidan har qanday shikoyat, masalalar yoki shubhalarni bizga xabar berishingiz lozim.

Ko'p millatli kompaniya sifatida Air Products bir qator qonunlar, qoidalar va tartiblarga bo'ysunadi. Mazkur Kodeksning shakli va mohiyatiga, shuningdek barcha amaldagi qonunlarga qat'iy amal qilish va talablarga amal qilinishi bo'yicha muammolarni bayon etish orqali Kompaniyamizni himoya qilish butun dunyo bo'ylab har birimizning majburiyatimizdir.

Ushbu Kodeks va barcha tegishli siyosatlar, tartiblar va lavozim hamda lavozimingizga tegishli hujjatlarni qarab chiqing. To'g'ri mulohaza qiling va nomuvofiq xulq-atvoriga umuman yo'l qo'ymang. Ba'zida mazkur Kodeksda nazarda tutilmagan vaziyatlarga duch kelishingiz mumkin. Biror-bir etika qoidasiga ikkilansangiz, o'zingizga savol bering:

- Bu Kodeksga muvofiqmi?
- Bu axloqiy to'g'rimi?
- Qonuniymi?
- Air Products va men uchun ijobiymi?
- Bu haqda kimdir xabar topsa, o'zimni yaxshi his qilamanmi?

Bu savollarning birortasiga javob "Yo'q" bo'lsa, uni qilmang.

Savollaringiz bo'lsa, maslahat uchun menejeringizga yoki yuristlar guruhiga murojaat qiling. Lavozimingizga aloqador Kodeks, qonun yoki siyosatlar, standartlar, asosiy tamoyillar va tartiblar bilan tanish bo'lmaslik qoida buzishlarni oqlamaydi. Ishi, lavozimi yoki vazifasidan qat'i nazar, har bir xodimni yetakchi deb hisoblaymiz. Kodeksimizga amal qilish orqali, hamkasblaringiz, biznes hamkorlaringiz, mijozlar va siz ishlaydigan boshqalar uchun namuna bo'lib xizmat qilasz.

Butun dunyoda qo'llanilishi

Ushbu Kodeks butun dunyo bo'ylab faoliyat olib borayotgan kompaniyaning barcha to'liq va qisman ishlayotgan xodimlariga, Direktorlar kengashiga, va shu'ba kompaniyalar, filiallar va butun jahondagi bo'linmalarga tatbiq etiladi. Ushbu Kodeksda "Kompaniya" so'zining qo'llanilishi mazkur tashkilotlarning barchasiga tegishli.

Mazkur Kodeks Kompaniya xodimlari va direktorlar kengashi a'zolari uchun maxsus yozilgan bo'lsa-da, agentlarimiz, maslahatchilar, distributorlar, qo'shma korxonalar hamkorlari va biz bilan biznes aloqalarini olib borayotgan uchinchi shaxslar ham mazkur standartlarga amal qilishini kutamiz. Air Products uchinchi shaxsining Kodeksga amal qilmasligi ularning Air Products bilan aloqalari to'xtatilishi, aloqalarni boshqaruvchi Air Products homiysi uchun intizomiy jazo va kompaniya uchun yuridik oqibatlariga olib kelishi mumkin. Uchinchi shaxs bilan biznes aloqalari uchun ichki homiy sanalsangiz, uchinchi shaxs mazkur Kodeks doirasida faoliyat olib borayotganligini ta'minlash uchun siz mas'ulsiz.

Barcha xodimlar tushunishi uchun mazkur Kodeks 20 dan ortiq tilga tarjima qilingan. Biz AQSH kompaniyasimiz, shu sababli butun dunyo bo'ylab xodimlarimiz, ularning ishi AQSHdan tashqarida bo'lsa ham, AQSH qonunlariga bo'ysunadi. Ammo, mamlakatingizdagi qonunlar ushbu Kodeks qoidalariga nisbatan qat'iyroq bo'lsa, mahalliy qonunchilikka amal qiling va savollaringiz bo'lsa yuristlar guruhidan maslahat oling.

Yordam olish va qoida buzilishlari haqida xabar berish

Sizdan qonunga zid harakatlar va axloq me'yorlari buzilishlari haqida xabar berish talab etiladi. Aksar holatlarda birinchi bo'lib bog'lanadigan shaxs menejeringiz bo'lishi kerak. Muammongizni hammadan ham ko'ra ko'proq tushunadigan va tegishli choralarni ko'radigan shaxs menejeringiz bo'ladi. Menejeringiz bilan gaplashish noqulay bo'lsa, yoki muammoni xabar qilib, unga lozim tarzda yechim topilmagan deb o'ylasangiz, yuristlar guruhi, me'yoriy-huquqiy muvofiqlik bo'limi rahbari, korporativ audit yoki kompaniyaning har qanday ijro organiga murojaat qiling.

Har kim kuniga 24 soat, haftasiga yetti kun davomida IntegrityLine'ga xabar berishi mumkin, u uchinchi shaxs tomonidan boshqariladigan bepul ishonch telefoni sanaladi. IntegrityLine'dan foydalanib, qo'ng'iroq qiluvchi muammolarni hujjatlashtiradigan, keyingi qadamlarni tushuntiradigan vakillar bilan gaplashishi (ko'pincha mahalliy tilda) va ko'rib chiqish uchun muammoni ma'lum qiladi. Bundan tashqari, har kim internetga ulanganda bir qator tillarda mavjud IntegrityOnline veb-sayti orqali xabar berishi mumkin.

Ehtimoliy qoida buzilishlari haqida IntegrityLine yoki IntegrityOnline orqali anonim tarzda xabar berish mumkin; biroq, tekshiruv o'tkazish uchun qo'shimcha axborot talab etilsa, shaxsingizni oshkor qilishingiz yuristlar guruhiga siz bilan bog'lanish imkonini beradi. Biz muammoni hal qiladiganlargagina axborotni oshkor qilamiz va Kodeksga muvofiq maksimal darajada maxfiylikingiz ta'minlanadi. Sizdan Kodeks qoidalari buzilishiga shubha yuzasidan o'tkazilayotgan tekshiruvda to'liq hamkorlik qilish kutiladi.

Biz Kodeks qoidalarining shubhali buzilishi haqida vijdonan xabar bergan shaxsga qarshi har qanday taqibni qat'iy taqiqlaymiz. Haqiqiy yoki taxminiy qoida buzilishlari haqida vijdonan xabar bergan har qanday shaxsdan bevosita yoki bilvosita o'ch olmoqchi bo'lganlarga nisbatan intizomiy choralar ko'riladi. Qasos olingani yoki olinayotganini bilsangiz yoki shunday shubhaga borsangiz, bu haqida xabar berishingiz lozim. Xodimlarni xabar bermaslikka undash taqiqlangan va bu intizomiy javobgarlikka olib kelishi mumkin.



IntegrityLine:

1-877-272-9726 (AQSH va Kanada)

**Mahalliy raqamlar va hisobotlar
bo'yicha ko'rsatmalar uchun**

www.airproducts.com/integrityline



IntegrityOnline: www.airproducts.com/integrityonline

Menejerlar uchun ko'rsatmalar: Agar xodim Kodeks yuzasidan sizga savol yoki muammo bilan murojaat qilsa, diqqat bilan eshiting va unga bor e'tiboringizni qarating. Masalani oydinlashtirishni va qo'shimcha ma'lumot so'rang. Imkoni boricha har qanday savolga javob bering, ammo darhol javob berishga majbur emassiz. Zarur bo'lsa, yordam oling. Agar xodim Kodeksga muvofiq tekshiruvni talab qiluvchi muammo bilan chiqsa, yuristlar guruhi, me'yoriy-huquqiy muvofqlik nazorati bo'yicha rahbar, korporativ audit yoki kompaniyaning har qanday ijro organi bilan bog'laning.

Yolg'on ayblovlar: Kompaniya muammoni vijdonan bayon qilgan har qanday xodimni himoya qiladi, ammo bilib turib yolg'on ayblov qilish, tekshiruvchilarni aldash yoki Kodeks doirasida tekshiruvga xalal berish yoki uni inkor qilish Kodeksni buzish sanaladi. Muammo bilan chiqqaningizda vijdonan axborot berish siz haq ekaningizni anglatmaydi; bu holatda siz taqdim etayotgan axborot aniq ekanligiga ishonasiz.

Jazolar

Kodeksga amal qilmaslik qoidani buzgan shaxs va Kompaniya uchun ham jiddiy oqibatlariga olib kelishi va barcha holatlarda bu Kompaniyaning nufuzi, obro'si va kelajagiga jiddiy zarba berishi mumkin.

Kodeksni buzgan har kim ishdan haydalishi, jinoiy javobgarlikka tortilishi va Kompaniya tomonidan sudga berilishi mumkin.

Menejerlar uchun ko'rsatmalar: Boshqaruv rovida bo'lsangiz, sizda etika madaniyati va muvofqlikni targ'ib qilish va har doimo o'zini qanday to'g'ri tutish bo'yicha boshqalarga namuna bo'lish yuzasidan qo'shimcha majburiyatlar bo'ladi. Menejerlar xodimlarga Kodeksni o'rganish, tushunish va tatbiq etishda yordam berishi lozim. Xodimlar qilgan qoida buzilishlarini bartaraf etolmagan menejerlar intizomiy jazoga tortilishlari va shaxsiy javobgar bo'lishlari mumkin. Bu menejerlardan ularning nazorati ostidagi xodimlarning qoida buzilishlari haqida xabar berish talab etilishini anglatadi.

Xodimlarni sertifikatlash

Sizdan Kodeksga rioya qilish, har yili majburiy o'quv mashg'ulotlarini o'tash va Kodeksni tushunish va unga muvofqlikni tasdiqlash so'raladi. Korporativ etika kodeksi bo'yicha yillik o'qitish va sertifikatlash hozirda yagona majmuaviy analyn dasturga birlashtirilgan bo'lib, bu mashg'ulotlarni har yili o'tashingiz kerak.

Korporativ etika kodeksi

- | | |
|---|---|
| 1. Manfaatlarga to'qnashuvi | 15. Ehtiyotkorona munosabat |
| 2. Firibgarlik | 16. Maxfiylik |
| 3. Poraxo'rlik va korrupsiya | 17. Siyosiy hissalar va davlat hokimiyati organi bilan ishlash |
| 4. Hukumat xodimlariga to'lovlar | 18. Ijtimoiy tarmoqlar va jamoatchilik bilan aloqa |
| 5. Sovg'a, safarlar va ko'ngilochar tadbirlar xarajatlari | 19. Ishga joylashishda imkoniyatlar tengligi va shilqimlikni oldini olish |
| 6. Moliyaviy hisob va hisobdorlik aniqligi | 20. Atrof-muhit, salomatlik, xavfsizlik va muhofaza |
| 7. Raqobat to'g'risida qonun | 21. Ish joyidagi zo'ravonlik |
| 8. Adolatli bitimlar | 22. Giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish |
| 9. Boykotlarga qarshi kurash haqidagi qonunlar | 23. Barqaror rivojlanish va korporativ ijtimoiy javobgarlik |
| 10. Import/eksport qonunlari | 24. Audit va tekshiruvlar |
| 11. Insayder axboroti | 25. Antirepressiya |
| 12. Maxfiy va xizmat ma'lumoti | 26. Direktorlar kengashi mas'uliyati va istisnolar |
| 13. Kompaniya aktivlari | |
| 14. Hujjatlar bilan ishlash | |
-

1. Manfaatlarga to'qnashuvi

Xodim sifatida Kompaniya manfaatlari doirasida ishlashga va manfaatlarga to'qnashuvini yuzaga keltiradigan yoki keltirishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldini olishga majbursiz. Shaxsiy faoliyat, sarmoya, manfaat yoki uyushmalar xavf ostida yoki shunday bo'lishi mumkin deb o'ylasangiz, Kompaniya nomidan haqqoniy ish qarorlari qabul qilishdagi xolisligingiz yoki shunday qobiliyatingiz bu haqda darhol yuristlar guruhi yoki korporativ audit bo'limiga darhol xabar berishdir. Ko'plab nizolarni o'z vaqtida xabar berish va lozim tarzda boshqarish orqali oson hal qilish yoki ularni oldini olish mumkin.

Ko'riboq, ehtimoliy nizo ekanligini payqab oling. Quyidagi holatlarda nizo kelib chiqishi mumkin:

- Yaqin shaxsiy aloqalaringiz bo'lgan shaxs bilan ishlaganingizda, unga rahbarlik qilganingizda yoki biznes qilganingizda.
- Ta'minotchi, mijoz, biznes hamkor yoki raqobatchilardan biriga sarmoya kiritganingizda.
- Air Products bilan raqobatlashayotgan, bizes olib borayotgan yoki biznes qilishni istagan kompaniya egasi bo'lganingizda yoki shunday kompaniya uchun ishlaganingizda. Shunday kompaniya uchun maslahatchi rolida yoki direktorlar kengashida ishlash ham nizo keltirib chiqarishi mumkin.
- Air Products nomi, mulki yoki axborotidan xayriya, professional yoki jamoatchilik tashkilotini qo'llab-quvvatlash uchun ruxsatsiz foydalanganingizda.
- Air Products uchun bunday imkoniyat kerak emas deb o'ylagan taqdiringizda ham, Air Products uchun berilgan biznes imkoniyatidan o'zingiz uchun foydalanganingizda.

Nizolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlarni hammasini ro'yxatini keltirish imkonsiz. Siz uchun nizo keltirib chiqaradigan har qanday holat yaqin qarindoshlaringiz uchun ham nizo keltirib chiqarishini yodda tuting. Vaziyat nizoli yoki unday emasligiga ishonchingiz komil bo'lmasa, yuristlar guruhi yoki korporativ audit bo'limidan so'rang.

2. Firibgarlik

Firibgarlik – bu majburiyat yoki javobgarlikdan qochish uchun o‘zi yoki boshqa birovga, yoxud Kompaniyaga foydali vaziyat yaratish maqsadida qilingan atayin chalg‘ituvchi harakat (yoki harakatsizlik). U xatodan farq qiladi, chunki ataylab qilingan xatti-harakat natijasidir. Har qanday firibgarlikni taqiqlaymiz.

“Firibgarlik” atamasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- vijdotsizlik yoki firibgarlik harakatlari;
- mablag‘lardan maqsadsiz foydalanish yoki o‘zlashtirish;
- kamomad;
- Kompaniya cheklari yoki veksellari kabi aylanma hujjatlarni qalbakilashtirish yoki o‘zgartirish;
- Kompaniya, xodim, mijoz, hamkor yoki ta‘minotchi aktivlarini noqonuniy o‘zlashtirish;
- naqd pul mablag‘lari, qimmatbaho qog‘ozlar, materiallar, mulk yoki Kompaniyaning boshqa istalgan aktividan shaxsiy foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- Kompaniya tranzaksiyalariga noqonuniy ishlov berish yoki ular to‘g‘risida noto‘g‘ri hisobot berish; va
- Kompaniya qaydlari va moliyaviy bayonotlarini atayin soxtalashtirish.

Yuqorida keltirilgan ro‘yxat to‘liq hisoblanmaydi, ammo firibgarlikni o‘z ichiga olgan vaziyatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan hisobot berish kanallariniung istalgan biri orqali haqiqiy yoki taxminiy firibgarlik haqida darhol xabar berishingiz kerak.

3. Poraxo‘rlik va korrupsiya

Kompaniya nomidan yoki uning faoliyati bilan bog‘liq holda biror-biri qadrli narsani taklif qilish, qabul qilish yoki berish siz uchun qat‘iyan taqiqlangan. Poraxo‘rlik ushbu Kodeksga muvofiq noqonuniy, etika me‘yorlariga zid sanaladi va taqiqlanadi. Pora turli shakllarda bo‘lishi mumkin: “biror-bir qadrli narsa” tom ma‘noda qadrga ega bo‘lgan, jumladan naqd pul, sovg‘alar, ovqatlanish, ko‘ngilochar tadbirlar, biznes imkoniyatlari, qarz yoki chegirmalar, siyosiy partiyalarga badallar, kompaniya mahsuloti, ish haqida taklif yoki boshqalarni anglatadi. Pul miqdorini chegarasi yo‘q: ijobiy yechim yoki murojaat uchun taklif etilsa, har qanday summa pora deb baholanishi mumkin. “Qadrli narsa” aslida berilishi ham shart emas; quruq va‘da yoki taklifning o‘zi ham taqiqlanadi. Bu qoida to‘lov amalga oshiriladigan har qanday mamlakatda va pora oluvchi davlat xizmatchisimi yoki xususiy shaxsmi, bundan qat‘i nazar tatbiq etiladi.

AQSH kompaniyasi sifatida biz Xorijda korrupsiya amaliyotlari to‘g‘risida AQSH qonuniga (“FCPA”) amal qilamiz. FCPAga amal qilinishini ta‘minlash uchun biz odatda aloqa o‘rnatishdan oldin ish bo‘yicha barcha ehtimoliy hamkorlarning xatarlarni baholashga asoslangan to‘liq tekshiruvini o‘tkazamiz. Kompaniyani ehtimoliy yangi ish bo‘yicha aloqalar haqida ogohlantirishingiz va kompaniya tekshiruvni yakunlay olishi uchun zarur axborotni taqdim etishingiz kerak.

Biz faoliyat olib boradigan ko‘plab davlatlarda korrupsiyaga qarshi kurashga yo‘naltirilgan qonunlar qabul qilingan. Bu qonunlarning ayrimlari eksterritorial kuchga ega bo‘lib, bu ular shubhali harakatlar mazkur mamlakatlardan tashqarida sodir bo‘lgan taqdirda ham tatbiq etilishini anglatadi. Mamlakatingizdan tashqarida ish boshlashdan avval siz faoliyat olib bormoqchi bo‘lgan mamlakatning qonunlari va siyosatlarini haqida tasavvurga ega bo‘lishingiz kerak. Savollaringiz bo‘lsa, yuristlar guruhiga murojaat qiling.

4. Hukumat xodimlariga to‘lovlar

Kompaniya poraxo‘rlikning barcha turlarini taqiqlagan bo‘lsa ham, butun dunyoda korrupsiyaga qarshi qonunchilik “biror-bir qadrli narsa”ni davlat xizmatchisiga/dan berganlik/olganlik uchun jiddiy fuqarolik va jinoiy jazo tayinlanishini ko‘zda tutadi. Bunday qonunlarning buzilishi ham kompaniya, ham bu ishga jalb qilingan alohida xodim uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Hech bir holatda biznes yuritish yoki uni saqlab qolish maqsadida davlat xizmatchisi, mansabdor shaxs yoki siyosiy nomzodga to‘lovlar qilishga ruxsat etilmaydi.

“Davlat xizmatchisi” atamasining izohi keng va har qanday davlat tashkiloti yoki muassasasida ishlaydigan yoki lavozimi yoki tajribasidan qat‘i nazar, hukumat nomidan har qanday rasmiy harakatni bajaradigan shaxslarni o‘z ichiga olishi mumkin. Davlat xizmatchilari davlat yoki davlat tomonidan boshqariladigan kompaniyalarning (“SOEs”) mansabdor shaxslari yoki xodimlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Kompaniya SOE keng qo‘llaniladigan bir qator davlatlarda ishlaydi.

Kompaniya sifatida biz bizning nomimizdan faoliyat olib boruvchi uchinchi shaxs vositachilarining (“TPIs”) harakatlari uchun ham javob beramiz. TPIs qo’shma korxonalar hamkorlari, agentlar, taqsimotchilar, uchinchi shaxs xizmat ta’minotchisi xodimlari yoki bizning nomimizdan xizmatlarni amalga oshiruvchi subpudratchilrni o’z ichiga oladi. TPIs kompaniya nomidan poralar berishi yoki boshqalarga lozim bo’lmagan to’lovlarni amalga oshirishi taqiqlanadi. TPI uchun ichki homiy sanalsangiz, TPIs mazkur Kodeksni tushunishi va uning doirasida faoliyat olib borayotganligini ta’minlash uchun siz mas’ulsiz. TPIs ni mos tarzda nazorat qilmaslik yoki muammolar haqida xabar bermaslik ushbu Kodeksning buzilishidir. Agar sizda bunday to’lovlarning bir qismi davlat xizmatchisi, mansabdor shaxs yoki siyosiy nomzodga o’tishi yoki boshqa yo’l bilan hukumat rasmiy vakilimi yoki boshqami, bundan qat’i nazar, unga pora berish yoki pul berish maqsadida amalga oshirilayotganligi haqida ma’lumotga yoki biror sababga ega bo’lsangiz, TPIs ga to’lovlarni taqdim etmasligingiz kerak.

Biror-bir davlat amaldori ishonchsiz odatiy hukumat harakatini bajarishi yoki harakatni tezlashtirishi uchun unga yordam uchun to’lovni amalga oshirishingiz taqiqlanadi. TPIs ham kompaniya nomidan ushbu to’lovlarni amalga oshirmasligi kerak.

5. Sovg’a, safarlar va ko’ngilochar tadbirlar xarajatlari

Biznes qarorlariga ta’sir o’tkazishga urinishdek yoki pora yoki sotib olishdek ko’rinadigan qimmatli narsalarni taklif qilishingiz yoki qabul qilishingiz mumkin emas. Uchinchi shaxslarga hashamatli yoki tez-tez sovg’alar, mehmondo’stlik, sayohat yoki ko’ngilochar tadbirlarni tashkil qilmang. Naqd pul olish yoki berish qat’iyan taqiqlanadi. Dastlab yuristlar guruhi va menejeringizni bevosita ma’qullovini olmasdan hech qanday davlat xizmatchisiga sovg’a bermang.

Ushbu Kodeks asosli va biznes bo’yicha maxsus dasturxonlar, tadbirlar va biznes qarorlariga ta’sir qilmaydigan va Kompaniyaning barcha siyosatlarini va tartiblariga muvofiq keluvchi sovg’alarni qabul qilish yoki berishni taqiqlamaydi. Mos tarzda sovg’a berishning ayrim belgilari - sovg’a oshkora va shaffof tarzda beriladi, beruvchining hisob kitoblarida to’g’ri qayd etiladi, evaziga hech narsa so’ralmaydi, katta yoki hashamatli bo’lmaydi, mahalliy qonunchilikda ruxsat etiladi.

Tafsilotlar uchun Sovg’alar berish, tushlik va ko’ngilochar tadbirlar tashkil qilishga oid poraxo’rlik va korrupsiyaga qarshi kurash to’g’risidagi qonunchilikka amal qilish bo’yicha 01-601 tartib bilan tanishing.

6. Moliyaviy hisob va hisobdorlik aniqligi

Kompaniya to’liq moliyaviy hisobotlarni va boshqa hujjatlarni AQSH qimmatli qog’ozlar va birjalar komissiyasiga taqdim etadi, shuningdek, moliyaviy ma’lumotlarni boshqa ommaviy hisobotlarda va xabarlarda oshkor qiladi. Ushbu hisobotlar, hujjatlar va boshqa xabarlar to’liq, to’g’ri, aniq, vaqtga amal qilingan va tushunarli bo’lishi kerak. Bunday materiallarni tayyorlash Kompaniyadan to’g’ri, asosli, batafsil moliyaviy hisobotlarni va ishonchli ichki nazorat tizimini yuritishni talab qiladi. Shunga muvofiq, Kompaniyaning birorta mansabdor shaxsiga atayin yolg’on, chalg’ituvchi yoki noto’g’ri ma’lumotlarni taqdim eta olmaysiz yoki moliyaviy yoki boshqa ma’lumotlarni atayin tushirib qoldirishingiz mumkin emas.

Biznes yuzasidan barcha hujjatlarni (jumladan, buxgalteriya yozuvlari, hisob-fakturalar, xarajatlar hisobotlari, ish haqi va moliyaviy hisobotlarni) to’g’ri tayyorlashingiz va barcha moliyaviy tranzaksiyalarni o’z vaqtida yozib olishingiz shart. Oshkor qilish yoki moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun bevosita javobgar bo’lmasangiz ham, mas’uliyatingiz doirasidagi voqealar va faktlar Kompaniyaning tegishli xodimlari tomonidan so’ralganda o’z vaqtida yetkazilishi uchun javobgarsiz.

Kompaniyaning buxgalteriya hisob kitoblarni aniq emasligi yoki yuqorida ko’rsatilgan talablarga muvofiq emasligiga shubha qilish uchun asosingiz bo’lsa, yuqorida ko’rsatilgan “Qoida buzilishlari to’g’risida xabar berish” tartibiga rioya qilgan holda yoki Direktorlar kengashining Audit va moliya qo’mitasi yoki Kompaniyaning korporativ audit bo’limi istalgan a’zosi bilan bevosita bog’lanish orqali darhol bu haqda xabar berishingiz shart. Quyidagi manzilga yozish orqali to’g’ridan-to’g’ri Audit va moliya qo’mitasiga maxfiy, anonim bayonot yuborishingiz mumkin: “Korporativ boshqaruv ofisi, Air Products and Chemicals, Inc., 1940 Air Products Boulevard, Allentown, PA 18106-5500”. Konvertga “MAXFIY” deb belgi qo’ying.

7. Raqobat to'g'risida qonun

Barcha xodimlar butun dunyo bo'ylab monopoliyaga qarshi va raqobat to'g'risida qonunlariga rioya qilishlari kerak, bu qonunlar savdoni cheklaydigan yoki raqobatni pasaytiradigan bitimlar yoki harakatlarni taqiqlaydi. Quyidagi maqsadlarda raqobatchilar bilan har qanday rasmiy yoki norasmiy bitimlar tuzish qat'iyan taqiqlanadi: (1) narxlar yoki shartlarni belgilash yoki nazorat qilish, (2) ayrim yetkazib beruvchilar yoki mijozlarni boykot qilish, (3) mahsulotlar, hududlar yoki bozorlarni taqsimlash, yoki (4) har qanday bozorda mahsulot ishlab chiqarish yoki sotishni cheklash.

Aksariyat mamlakatlarning monopoliyaga qarshi yoki raqobat to'g'risida qonunlari ekstraterritorial ta'sirga ega, ya'ni ular muammolarga sabab bo'luvchi raqobatga qarshi xatti-harakatlar olis mamlakatda yuzaga kelganda ham amal qiladi.

Raqobatchilar bilan yaqin aloqada bo'lgan vaziyatlarda, masalan, qo'shma korxonalar, sotib olish va sotish bo'yicha munozaralar, savdo uyushmalari va ko'rgazmalarda qatnashish, mahsulot ta'minotchlarini qidirishda ishtirok etish, mijozlar joylashgan joyda va onlayn tarzda ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa aloqa platformalari orqali uchrashuvlarda maxfiy ma'lumotlarni mukokama qilishdan saqlanish. Raqobatchilar, ta'minotchilar, mijozlar yoki boshqa biznes bo'yicha hamkorlar haqida maxfiy ma'lumotlarni qidirmang yoki ularga bunday ma'lumotlarni bermang. Ko'plab mamlakatlar qonunlarida tijorat sirini noqonuniy qabul qilgan yoki tarqatgan shaxslar yoki tashkilotlar uchun jiddiy jinoiy jazolar nazarda tutilgan. Vaziyat ba'zi ma'lumotlarni almashishni talab qilganda, birinchi navbatda zaruriy maxfiylik kelishuvlari haqida yuristlar guruhi bilan maslahatlashing.

8. Adolatli bitimlar

Barchamiz Kompaniyaning mijozlari, yetkazib beruvchilari, raqobatchilari va hamkasblari bilan adolatli munosabatda bo'lishimiz kerak. Hech kim manipulyatsiya, yashirish, imtiyozli ma'lumotlarni suiiste'mol qilish, moddiy faktlarni noto'g'ri ko'rsatish yoki boshqa adolatsiz ish yuritish amaliyoti orqali odamlar yoki vaziyatlardan foydalanmasligi kerak.

9. Boykotlarga qarshi kurash haqidagi qonunlar

AQSHning boykotga qarshi qonunlari kompaniyalarga AQSH hukumati ruxsat etmagan har qanday xalqaro boykotda qatnashishlarini taqiqlaydi. Ruxsat etilmagan boykotni qo'llab-quvvatlaydigan har qanday biznes bilan shug'ullanmasligingiz shart. Shartnomaning bir qismi bo'ladimi yoki yo'qmi, boykot haqidagi ma'lumotni o'z ichiga olgan hujjatni olsangiz, unga aniqlik kiriting va bu haqda Kompaniyaning yuristlar guruhiga xabar bering. Bunday ma'lumot so'rovini qabul qilishning o'zi, hattoki kompaniya javob bermasa ham, AQSH hukumat agentliklariga xabar qilinishi kerak. Bunday boykot so'rovlariga og'zaki yoki yozma tarzda javob bermang.

10. Import/eksport qonunlari

Global kompaniya sifatida biz barcha amaldagi mahalliy, mintaqaviy va xalqaro savdo qonunlari, qoidalari va me'yorlariga rioya qilishimiz kerak. Biz savdo sanksiyalari va import/eksport cheklovlarini hurmat qilamiz. Import yoki eksport uchun mo'ljallangan har qanday mahsulot import yoki eksport qilinishidan oldin to'g'ri tasniflanganligiga ishonch hosil qiling. Bundan tashqari, kelib chiqish mamlakati, belgilangan manzil, oxirgi foydalanish va oxirgi foydalanuvchi to'g'ri oshkor etilishini tekshiring. Import va eksportda barcha kerakli hujjatlar, yorliqlar, litsenziyalar, ruxsatnomalar va tasdiqlovlar mavjudligiga ishonch hosil qiling. Import va eksportni bojxona organlariga aniq va oshkora ma'lum qiling va baholang.

Hech bir holatda Kompaniya AQSH qonunlariga muvofiq "embargo" ro'yxatiga kiritilgan mamlakatlarga tovarlar, xizmatlar yoki texnologiyalarni import yoki eksport qila olmaydi. Qoida buzilishlari Kompaniya va alohida xodimlar, mansabdor shaxslar va rahbarlar uchun jinoiy va fuqarolik jazolariga olib kelishi mumkin. Bu tovarlarni musodara qilish va biznes qilish imkoniyatimizni taqiqlanishiga ham olib kelishi mumkin.

Barcha xodimlardan bizning ta'minot zanjirimiz yaxlitligini ta'minlashda yordam berishlari talab etiladi. Kompaniya nomidan biznes yurituvchi uchinchi shaxslar bilan ishlasangiz, Kompaniya sizdan ularga bizning siyosatlarimizni yetkazishingizni kutadi. Xalqaro savdoni tartibga soluvchi qonunlarga rioya etilishini ta'minlash uchun shartnoma tuzilishidan oldin mijozlarni, yetkazib beruvchilarni va yangi biznes hamkorlarini puxta tekshirish va ular haqida yaxshilab bilib olish juda muhimdir.

Har qanday savol yuzasidan yuristlar guruhi va/yoki Savdogaga muvofiqlikni ta'minlash guruhidan maslahat so'rang. Har qanday shunday faoliyatni boshlashdan oldin sanksiya ostidagi davlatlar bilan bog'liq barcha faoliyatlar yuristlar guruhi va/yoki Savdogaga muvofiqlikni ta'minlash guruhi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

11. Insayder axboroti

AQSH ochiq aksiyadorlik jamiyati sifatida, barchamiz AQSH qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunlarga rioya qilishimiz shart. Bu "insayder savdosi"ga taqiqlarni o'z ichiga oladi, bu kompaniya haqida jamoatchilik bilmagan moddiy ma'lumotlarni bilish bilan kompaniyaning qimmatli qog'ozlarini sotib olish yoki sotish degani. "Moddiy" ma'lumotlar ehtimoliy investorning qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki sotish bo'yicha qaroriga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday axborotni o'z ichiga oladi, masalan, ehtimoliy sotib olish yoki ixtiyoriga o'tkazish, kompaniya daromadi natijalari yoki taxminlari, muhim shartnomalarni tuzish yoki boy berish va yuqori boshqaruvdagi rejalashtirilgan o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar. Bunday bitimda ishtirok etish nafaqat Kompaniya siyosatini buzish, balki jinoyat ham hisoblanadi.

Agar sizda Air Products yoki boshqa kompaniyaga, shu jumladan, bizning raqobatchilarimiz, mijozlarimiz, distributorlarimiz yoki boshqa biznes hamkorlarimizga tegishli ochiq bo'lmagan moddiy ma'lumotlarga kirish ruxsati bo'lsa, Air Products qimmatli qog'ozlari yoki boshqa kompaniyaning qimmatli qog'ozlarini press-revizlar, AQSH qimmatli qog'ozlar va birja bo'yicha komissiyaga ariza berish yoki o'xshash tarzda ommaviy e'lon qilish orqali ma'lumotlar jamoatchilikka oshkor qilinganidan keyin kamida bir ish kunigacha sotmang yoki sotib olmang. Kompaniyaning ushbu siyosati oddiy aksiyalar kabi qimmatli qog'ozlarga ham, qarz yukli qimmatli qog'ozlariga ham, shuningdek, put v a coll opsiolariga, aksiyalarni sotib olish yoki sotish orderlariga va aksiyaga ayirboshlanadigan qarz yukli qimmatli qog'ozlarga nisbatan qo'llaniladi.

Sizda ochiq bo'lmagan moddiy ma'lumotlar bo'lsa, na to'g'ridan-to'g'ri va na nafaqa yoki jamg'arma rejangiz doirasida Kompaniya qimmatli qog'ozlari bilan savdo qila olasiz. Savdo qila olmasangiz, oila a'zolaringiz ham, uyingizda yashovchilar ham savdo qila olmaydi. Shuningdek, boshqalarga Air Products yoki boshqa kompaniya haqida ochiq bo'lmagan moddiy ma'lumotlarni taqdim etishingiz taqiqlangan. Bunday ma'lumotni boshqalarga taqdim etish noqonuniy "yordam" hisoblanadi va fuqarolik yoki jinoiy javobgarlikka olib kelishi mumkin.

12. Maxfiy va xizmat ma'lumoti

Siz Kompaniyaning jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan va raqobatchilar yoki boshqa qarshi tomonlar uchun foydali yoki foydali bo'lishi mumkin bo'lgan maxfiy va mulkka oid ma'lumotlarini himoya qilish uchun javobgarsiz. Maxfiy ma'lumotlar savdolar, marketing va boshqa korporativ ma'lumotlar bazalari; mulkiy intellektual strategiya va rejalar; marketing strategiyalari va rejalari; narx haqida ma'lumot; savdolar haqida ma'lumotlar; ochiq bo'lmagan moliyaviy ma'lumotlar; mijozlar va xodimlarning hujjatlari; ishlab chiqarish usullari, yetkazib beruvchi narxlari, muhandislik ma'lumotlari va chizmalari, tadqiqot va texnik ma'lumotlar va yangi mahsulotni ishlab chiqishga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Sizda Kompaniya yoki mijozlarimiz, yetkazib beruvchilarimiz yoki boshqa biznes hamkorlarimiz haqidagi bunday ma'lumotlarga kirish ruxsati bo'lsa, uni faqat Kompaniya ichidagi va bunday ma'lumotlarni "bilishi kerak" bo'lgan boshqalarga oshkor qiling. Huquqlarimizni himoya qilish uchun intellektual mulkdan har qanday foydalanish amaldagi barcha qonuniy talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

Biz bir qator uchinchi tomonlarning, masalan, mijozlar, yetkazib beruvchilar, qo'shma korxonalar hamkorlari va boshqa filiallarning maxfiy va mulkiy ma'lumotlari bilan ishlaymiz. Uchinchi tomonlarning ma'lumotlarini noqonuniy o'zlashtirish Kompaniyaning biznes aloqalarini xavf ostiga qo'yishi va Kompaniyani va bizning xodimlarimizni jiddiy huquqiy va moliyaviy xatarga duchor qilishi mumkin. Shunday ma'lumotlarga kirish ruxsatingiz bo'lsa, tegishli biznes rahbari tomonidan tasdiqlangan har qanday oshkor qilmaslik yoki maxfiylik shartnomasini imzolashingiz va uning shartlariga rioya qilishingiz kerak.

13. Kompaniya aktivlari

Kompaniya resurslaridan faqat qonuniy biznes maqsadlarida foydalanishingiz va ularni o'g'irlik, yo'qotish, shikastlanish yoki noqonuniy foydalanishdan himoya qilishingiz kerak. Har qanday shubhali firibgarlik, o'g'irlik, xavfsizlik buzilishi yoki boshqalar tomonidan Kompaniya aktivlaridan noto'g'ri foydalanish haqida darhol xabar bering. Agar kompaniya haqida ma'lumotlar saqlangan qurilma joyini chalkashtirib yuborsangiz yoki yo'qotib qo'ysangiz, darhol bu haqda xabar berishingiz kerak.

Sizdan obyektlar, materiallar, uskunalar, mashinalar, ehtiyot qismlar, xom ashyo, tayyor mahsulotlar, transport vositalari va Kompaniya mablag'lari kabi jismoniy aktivlarimizni himoya qilishingiz talab qilinadi. Kompaniya aktivlarini o'g'irlamang yoki Kompaniya mulki, ma'lumotlaridan yoki nufuzidan shaxsiy manfaatingiz yoki biron bir qarindoshingiz, do'stlaringiz yoki hamkorlaringizning shaxsiy manfaatlari uchun foydalanmang. Bundan tashqari, sizga biznes imkoniyatlari uchun kompaniya bilan raqobat qilish va o'zingiz uchun korporativ mulk, ma'lumot yoki mavqedan foydalanish orqali olingan har qanday imkoniyatdan foydalanish taqiqlanadi.

Kompaniyaning elektron va nomoddiy aktivlari - vaqt, maxfiy ma'lumotlari, intellektual mulki va axborot tizimlarini himoya qiling. Har bir elektron pochta, internet havolasi, biriktirma yoki ma'lumot so'roviga (elektron, jonli yoki telefon orqali) ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ling. Hech qachon tarmoq yoki shaxsiy parollaringizni ulashmang, maxfiy ma'lumotlarni onlayn yoki elektron pochta orqali taqdim qilmang yoki tasdiqlanmagan xatlardagi havolalarga bosmang. Ma'lumot so'rganlarning haqiqiy shaxsini tasdiqlash uchun har doim qayta tekshiring.

14. Hujjatlar bilan ishlash

Kompaniya hujjatlari muhim korporativ aktivlardir. Siz ishlatadigan ma'lumotni qanday tasniflashni tushunib oling va uni Kompaniya siyosati hamda amaldagi qonun va qoidalarga muvofiq qo'llaning. Kompaniyaning hujjatlarni saqlash jadvalini tushunganingizga va unga rioya qilganingizga ishonch hosil qiling va bu haqda ko'rsatma berilganda ehtimoliy yoki kutilayotgan sud jarayoni bilan bog'liq hujjatlarni saqlang. Ushbu siyosat bosma va elektron hujjatlar va elektron pochta xabarlariga nisbatan qo'llaniladi. Yozuvlaringizni yoki hujjatlaringizni qanday boshqarishni bilmasangiz, maslahat uchun menejeringiz yoki ma'lumot bo'limi rahbari bilan maslahatlashing.

15. Ehtiyotkorona munosabat

Kompaniyaning uskunalari, tizimlari, ma'lumotlari, tovarlari va xizmatlari faqat Kompaniya faoliyati uchun ishlatilishi kerak. Bunga elektron pochta, tezkor xabar almashish va internet kiradi. Kompaniya aktivlari yoki ma'lumotlaridan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanish taqiqlanadi.

Kompaniya biznesi va aloqalari faqat Air Products tarmog'ida amalga oshirilishi kerak. Shaxsiy elektron pochta manzillaringizdan hech qachon AT bo'limining ruxsatisiz Kompaniya biznesini yuritish yoki Kompaniya ma'lumotlarini yuborish, uzatish yoki olish uchun foydalanmang.

Siz yozgan, yuborgan, yuklab olgan yoki bizning tizimlarimizda saqlagan har qanday axborot Kompaniya mulki hisoblanadi va biz bunday tizimlardan foydalanishingizni nazorat qilishimiz mumkin. Shunday ekan, bizning tizimlarimizdan foydalanganda shaxsiy daxlsizlikni kutmang. Kompaniya elektron pochta va ovozli pochta xabarlarini va internetdan foydalanishni kuzatish, Kompaniya tomonidan taqdim etilgan kompyuterlar, smartfonlar va shunga o'xshash boshqa qurilmalar, olinadigan tashuvchilar va Kompaniya tarmog'ida saqlangan har qanday va barcha fayllarga kirish va tekshirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Foydalanuvchi identifikatorlari va parollar faqat xavfsizlik, xodimlarni identifikatsiya va autentifikatsiya qilish uchun ishlatilishi kerak va hech qanday xodimga maxfiylik huquqini bermaydi hamda Kompaniyaning tizimlarimizga kirishiga to'sqinlik qilmaydi.

Kompaniya xodimlari tomonidan Air Products tarmog'ida yoki Kompaniya faoliyati bilan bog'liq holda yaratilgan barcha hujjatlar va aloqalar sudda ko'riladigan korporativ yozuvlar deb hisoblanishi mumkin. Shuning uchun barcha aloqalarda professionallikni saqlash va hujjatlarni yaratishda maqsad va kontekstni hisobga olish juda muhimdir. Chalg'ituvchi yoki taklif qiluvchi so'zlardan, qabul qiluvchini sharmanda qilishdan, bo'rttirib yoki noto'g'ri tavsiflardan saqlanish. Biznes amaliyotlari, hukumat nazorat organlari, sud jarayonidagi qarshi tomonlar yoki sudlar tomonidan ko'rib chiqilayotganda noto'g'ri talqin qilinishi mumkin bo'lgan hazil yoki kinoyalardan saqlanish.

16. Maxfiylik

Faoliyati davomida Kompaniya xodimlar, biznes hamkorlar, mijozlar va boshqalar haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni, masalan, tug'ilgan sanalari, manzillari, moliyaviy, tibbiy va boshqa ma'lumotlarni to'playdi va saqlaydi. Kompaniya ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha barcha amaldagi qonunlar va qoidalarga rioya qilishi kerak. Shaxsiy ma'lumotlar faqat qonuniy biznes maqsadlarida to'planishi, kirishga ruxsat berilganlar bilangina ulashilishi, xavfsizlik siyosatiga muvofiq himoyalaniishi va faqat kerak bo'lganda saqlanishi kerak. Shaxsiy ma'lumotlarga kirish huquqiga ega bo'lgan uchinchi shaxslar shartnoma bo'yicha uni himoya qilishga majbur.

Kompaniya telefon suhbatlarini tinglash va elektron kuzatuvning boshqa shakllarini tartibga soluvchi barcha qonunlarga rioya qilishi kerak. Aloqaning barcha tomonlari eshitish yoki yozib olishga rozilik bermasa, har qanday telefon, faksimil, modem orqali uzatiladigan, elektron pochta yoki boshqa elektron aloqaning mazmunini eshitish yoki yozib olish uchun har qanday elektron, mexanik yoki boshqa qurilmadan foydalana olmaysiz. Bunga, shu jumladan boshqa shaxslarning suhbatlarini eshitish ham kiradi. Eshitish yoki yozib olish huquqi bor yoki yo'qligidan qat'i nazar, ushbu talablar buzilgan holda eshitilgan yoki yozib olingan xabarlardan foydalana olmaysiz yoki ularni oshkor qila olmaysiz.

Yozib olingan shaxs bu haqda bilmasa yoki bunga rozilik bermasa, yuristlar guruhining ruxsatisiz, kompaniya mulkida yoki kompaniya faoliyati bilan bog'liq holda, boshqa shaxsning ovozi, fotosurati yoki boshqa videoyozuvni amalga oshirish uchun hech bir qurilmadan foydalanmang.

17. Siyosiy hissalar va davlat hokimiyati organi bilan ishlash

Air Products and Chemicals, Inc., yuridik shaxs sifatida, hech qanday mamlakat yoki mintaqadagi nomzodlarga, hatto qonun bilan ruxsat etilgan joylarda ham, siyosiy korporativ hissa qo'shmaydi. Siz o'zingizning nomingizdan partiya yoki nomzodga shaxsiy hissa qo'shishingiz mumkin, lekin Kompaniya mablag'laridan foydalana olmaysiz yoki tovon pulini talab qila olmaysiz. Biroq, buni amalga oshirishda siyosiy ishlarda ishtirok etishni tartibga soluvchi amaldagi qonunlarga amal qilishingiz kerak. Yuristlar guruhi va/yoki Hukumat bilan aloqalar bo'limi tomonidan oldindan ma'qullanmagan bo'lsa, davlat hokimiyati organi bilan ishlashingiz, sovg'alar berishingiz yoki kompaniya faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha qonunchilik yoki boshqa siyosiy qarorlar bo'yicha hukumat amaldorlarining harakatlariga ta'sir o'tkazishingiz mumkin emas.

18. Ijtimoiy tarmoqlar va jamoatchilik bilan aloqa

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanganda va jamoatchilik bilan muloqotda bo'lganingizda, teran mulohaza va sog'lom fikrdan foydalaning. Shaxsiy ijtimoiy tarmoqlaringizda, boshqa onlayn e'lonlarda yoki ommaviy xabarlarda hech qachon Kompaniyaning yoki xodimlarning, sho'ba korxonalarining, filiallarning, mijozlarning, yetkazib beruvchilarning yoki boshqa biznes hamkorning maxfiy ma'lumotlarini oshkor qilmang. Vakolatingiz bo'lmasa, Kompaniya nomidan aslo chiqmasligingiz kerak. Noqonuniy, ushbu Kodeksni buzadigan yoki sizni yoki Kompaniyani noqulay holatga soladigan biror-bir aslo qilmang.

Agar sizdan Air Products nomidan yoki unga havola qilib ochiq muloqot qilish so'ralsa, korporativ aloqalar yoki yuristlar guruhi bilan aloqalarni ko'rib chiqishi kerak bo'lgan menejeringiz bilan maslahatlashing.

Qo'shimcha ma'lumot kerak bo'lsa, Air Products'ning Barcha xodimlari uchun Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish siyosati, 01-10 standarti bilan tanishib chiqing.

19. Ishga joylashishda imkoniyatlar tengligi va shilqimlikni oldini olish

Xodimlarimiz bizning eng qadrlil aktivimizdir. Biz ishchi kuchi turli xil bo'lishi ahamiyatli ekaniga ishonamiz va ularning irqi, rangi, etnik kelib chiqishi, milliy kelib chiqishi, jinsi, dini, jinsiy tanlovi, jinsiy mansubligi, oilaviy ahvoli yoki nogironligi asosida kamsitishlarini taqiqlaymiz. Barcha ishlarimiz va ishga joylashish amaliyotimizda shaxsiy xususiyatlaridan qat'i nazar, eng malakali nomzodlarni yollash, ishga olish, o'qitish va malaka oshirish uchun teng asosda bandlikni tartibga soluvchi amaldagi qonunlarga rioya qilamiz. Har qanday shaxsiy xususiyat asosida ishga joylashish qarorini qabul qilish har doim siyosatimizga zid va ko'plab mamlakatlar qonunlariga muvofiq noqonuniy hisoblanadi. Ushbu siyosat buzilganligidan xabar topsangiz, uni darhol tegishli menejer yoki kadrlar bo'limi vakiliga yetkazing. Shuningdek, IntegrityLine yoki IntegrityOnline orqali qoida buzilishi yoki boshqa muammolar haqida xabar berishingiz mumkin. Imkoniyatlarni teng taqdim qilish ish joyimizga hurmat bilan munosabatimizning bir qismidir va ish bilan bog'liq qarorlar aslo yosh, jins, irq, rang, din, milliy kelib chiqishi, jinsiy tanlov, oilaviy ahvol, nogironlik yoki amaldagi qonunlar bilan himoyalangan boshqa xususiyatlarga asoslanmaydi.

Kompaniyaning barcha xodimlaridan hamkasblar va boshqalarga e'tibor va hurmat bilan munosabatda bo'lishlari talab etiladi. Kompaniya xodimlarga hech kim, shu jumladan rahbariyat a'zolari tomonidan tazyiq o'tkazilishi, jinsiy tazyiq o'tkazilishini aslo ma'qullamaydi. Tazyiq o'tkazish - bu odamning ish qobiliyatiga xalaqit berishi mumkin bo'lgan nomaqbul va haqoratli xatti-harakatdir. Tazyiq o'tkazish uchun haqorat qilish istagi talab qilinmaydi. Hazil, o'yin qilish yoki hatto iltifot kabi nomaqbul xatti-harakatlar bezovtalanishga olib kelishi yoki tazyiqni kuchaytirishi mumkin. Ushbu siyosatni buzadigan har qanday darajadagi va shakldagi tazyiqqa yo'l qo'yilmaydi va bu intizomiy jazoga, shu jumladan ishdan bo'shatishga olib keladi. Barcha shikoyatlar darhol va shov-shuvsiz tekshiriladi. Biz har qanday zo'ravonlik yoki tazyiqlarga, jumladan, jinsiy yoki irqiy tazyiqqa, qo'rqitish, kamsituvchi yoki haqoratli harakatlarni oqlamaymiz.

Ish muhiti va ish joyidagi hurmat bilan bog'liq barcha tegishli mintaqaviy siyosatlar, standartlar, ko'rsatmalar va tartiblar bilan tanishib chiqing. Kompaniyaning xilma-xillik va qo'shimchalari, tazyiqlarga qarshi siyosatlari bo'yicha treninglari va ish muhitimiz haqidagi boshqa kurslardan xabardor bo'lib turing. Tazyiq haqida xabar bergani yoki tergovda hamkorlik qilgani uchun kimgadir javob chorasi qo'llash yoki kamsitish ham ushbu siyosatni buzish hisoblanadi.

20. Atrof-muhit, salomatlik, xavfsizlik va muhofaza

Mehnatni muhofaza qilish, salomatlik, xavfsizlik va atrof-muhitga nisbatan majburiyatimiz o'zgarmaydi. Har kuni biz butun dunyo bo'ylab xavfsizlik ko'rsatkichlarini yaxshilashga harakat qilamiz. Biz jarohatlarni bartaraf qilish, atrof-muhit va salomatlikka salbiy ta'sirlarning oldini olish, korxonalarimizdagi chiqindilarni kamaytirish ustida ishlamoqdamiz.

Amaldagi barcha qonunlar, shu jumladan, atrof-muhit ifloslanishining oldini olishga, ish joyimizda va tadbirkorlik faoliyatimizdan zarar ko'rgan xodimlarimizning salomatligi va xavfsizligini himoya qilishga aloqador tegishli sanoat standartlariga amal qilishingiz kerak. Har doim kompaniyaning atrof-muhit, salomatlik, xavfsizlik (EH&S) va Barqaror rivojlanish bo'yicha barcha siyosatlari, standartlari va tartiblariga rioya qilishingiz va hamma talab etilgan treninglardan o'tishingiz kerak. Kompaniya xavfsizlik siyosati va tartib-qoidalariga e'tibor bermaslik yoki xavfsizlik tizimlarimizni o'chirib qo'yish yoki chetlab o'tganlik uchun intizomiy choralar ko'rishdan tortib ishdan bo'shatishgacha bo'lgan huquqlarga ega.

Menejeringiz, EH&S va kadrlar bo'limi sizning saytingiz yoki lavozimingizga tegishli har qanday siyosatni tushunishingizga yordam beradi. Salomatlik yoki xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatni hal qilishda faol bo'ling. Salomatlik yoki xavfsizlikka oid har qanday salbiy hodisalar yoki holatlar, shu jumladan shikastlangan asbob-uskunalar yoki mashinalar va baxtsiz hodisalar haqida har bir obyektidagi xavfsizlik uchun mas'ul shaxsga yoki me'yoriy-huquqiy muvofiqlik bo'limi rahbariga xabar bering.

Odamlar zararli maqsadlarda foydalansa, zarar yetkazishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarganimiz va tashishimiz sababli, xavfsizlik Kompaniya uchun ustuvor hisoblanadi. Barcha xodimlar, tashrif buyuruvchilar va mehmonlar bizning saytlarimizdagi barcha xavfsizlik siyosatlari, standartlari va tartib-qoidalariga istisnosiz rioya qilishlari shart. Agar sizda xavfsizlik bilan bog'liq muammolar yoki shubhalaringiz bo'lsa, Korporativ xavfsizlik bo'limini ogohlantiring.

21. Ish joyidagi zo'ravonlik

Kompaniya ish joyidagi zo'ravonlikka mutloq toqat qilmaslik siyosatiga amal qiladi. Boshqa shaxsni xavf ostiga qo'yadigan yoki xavfli his qilishiga olib keladigan har qanday xatti-harakatni bajarish taqiqlanadi. Bunga og'zaki tarzda tajovuzlar, tahdidlar yoki dushmanlik, qo'rqitish yoki tajovuzning har qanday shakli kiradi. Mahalliy qonunlarga muvofiq Kompaniyaning barcha hududida qurol taqiqlangan. Agar hududlarimizda kimdadir qurol bor degan shubhada bo'lsangiz, darhol menejeringizga yoki Global aktivlarni himoya qilish bo'yicha guruhimiz a'zosiga xabar bering. Bundan tashqari, ish joyiga xavfsizlik yoki xavfsizlikka tahdid soladigan har qanday tashqi muammo haqida xabar bering.

22. Giyohvand faol moddalarni suiiste'mol qilish

Sizdan o'z vazifalaringizni ish unumdorligini pasaytiradigan va/yoki o'zingiz va atrofdagilar uchun nomaqbul xavfsizlik xatarini tug'diradigan har qanday moddaning ta'siridan xoli bajarishingiz kutiladi. Quyidagilar taqiqlanadi: (1) Kompaniya hududida yoki undan tashqarida spirtli ichimliklar, noqonuniy giyohvand moddalar yoki nazorat ostida bo'lgan moddalar ta'sirida ishlash; (2) ish paytida yoki kompaniya hududida noqonuniy dori vositalari yoki nazorat qilinadigan moddalarga egalik qilish, sotish, ishlatish, o'tkazish yoki tarqatish (shifokor tomonidan ko'rsatilganidan va amaldagi siyosatga muvofiqidan tashqari); yoki (3) qonuniy retsept bo'yicha dori-darmonlar yoki retseptsiz sotiladigan dori vositalari ta'siri ostida ishlash (kompaniya hududida yoki undan tashqarida). Agar sizda giyohvandlik yoki alkogolizm muammosi bo'lsa, kadrlar bo'limiga yordam uchun murojaat qilib, mintaqangizdagi yordam dasturlari haqida ma'lumot olish qat'iy tavsiya etiladi.

Kompaniya biznesini yuritishda spirtli ichimliklar ichishga ruxsat berilgan holatlar bo'lishi mumkin, masalan, ijtimoiy muhitda, lekin barcha qonunlar va Kompaniya siyosatlariga rioya qilganingizga ishonch hosil qiling. Har doim me'yorni biling va sog'lom fikrlash qobiliyatingizni yo'qotmang.

23. Barqaror rivojlanish va korporativ ijtimoiy javobgarlik

Kompaniya atrof-muhitdan oqilona foydalanish, ijtimoiy va korporativ mas'uliyat, shuningdek energetika, ekologiya va rivojlanayotgan bozorlar uchun innovatsion yechimlar orqali uzoq muddatli qadriyatlar yaratishga intiladi. Air Products'ning barqaror rivojlanish maqsadlari bilan tanishing. Har bir xodim barqaror mahsulotlar va amaliyotlar yaratilishini qo'llab-quvvatlab, ushbu maqsad yo'lida kompaniyani rivojlantirish uchun mas'uldir. Yetkazib beruvchilarimiz ham barqarorlik borasidagi umidlarimizni oqlashi lozim.

Barqaror rivojlanish borasidagi axloq qoidalarga rioya qilinishi bilan bog'liq har qanday muammodan xabardor bo'lsangiz, yuqorida ko'rsatilgan "Qoida buzilishlari haqida xabar berish" tartibiga amal qiling yoki yuristlar guruhi bilan bog'laning.

24. Audit va tekshiruvlar

Kompaniyadagi faoliyatingiz davomida sizdan bizning ichki auditorlarimiz, tashqi auditorlarimiz yoki yuristlar guruhi tomonidan o'tkaziladigan audit yoki ichki tekshiruvda ishtirok etishingiz so'ralishi mumkin. Bunday holatda doim to'liq hamkorlik qilishingiz va vijdonan axborot taqdim etishingiz kerak bo'ladi. Hujjatlarni taqdim etish so'rovi yoki sud jarayoni yoki hukumat tekshiruvi munosabati bilan tartibga soluvchi organlar yoki advokatlar bilan uchrashish so'rovini ham olishingiz mumkin. Agar bunday so'rovni olsangiz, yordam uchun darhol yuristlar guruhiga murojaat qiling.

25. Antirepressiya

Kompaniya qonun yoki siyosati buzilganligi haqida vijdonan xabar bergan, Kompaniyaning qonun va siyosati ehtimoliy buzilishlari bo'yicha audit yoki tekshiruvda hamkorlik qilgan, yoki xodimning asosli fikri bo'yicha, qonun yoki Kompaniya siyosati buzilgan deb hisoblanuvchi faoliyatda ishtirok etishga qarshilik bildirgan yoki rad etgan shaxsga nisbatan har qanday xodim tomonidan taqibni qat'iy taqiqlaydi. Repressiyaning taqiqlangan shakllariga, masalan, ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish, xodimning ish samaradorligini pasaytirish, xodimning tayinlanish yoki ko'tarilish imkoniyatlarini cheklash, xodimni korporativ yoki idoraviy vazifalardan chetlatish, haqorat qilish yoki har qanday turdagi salbiy harakatlar bilan tahdid qilish kiradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, repressiya xatti-harakatlariga yo'l qo'ygan har qanday xodim intizomiy jazoga, shu jumladan ishdan bo'shatishgacha bo'lgan jazoga tortilishi mumkin. Xabar qilingan hodisa hech qanday daliliy asosga ega emasligini bilgan holda, o'ylamasdan yoki yomon niyatda voqea haqida xabar berishga nisbatan tegishli intizomiy choralar, shu jumladan ishdan bo'shatish chorasi ham qo'llanilishi mumkin.

26. Direktorlar kengashi mas'uliyati va istisnalar

Direktorlar kengashi ushbu Kodeksni qabul qildi va Kodeksga o'zgartirishlar kiritishning mutlaq vakolatiga ega. Kamdan kam hollarda, me'yoriy-huquqiy muvofiqlik bo'limi rahbari Kodeksning bir qismidan voz kechish maqsadga muvofiq degan qaror chiqarishi mumkin, ammo, ijrochi mansabdor shaxslar yoki direktorlarga tatbiq etiladigan Kodeksni qo'llashni har qanday tarzda inkor qilish direktorlar kengashi yoki korporativ boshqaruv va korporativ direktorlar kengashini boshqarish va tayinlash qo'mitasi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Barcha shunday inkorlar Nyu-York fond birjasi ro'yxatga olish standartlari va amaldagi qonun bilan talab etilganda darhol oshkor qilinadi.

Argentina	0800-444-8089
Belgiya	0800-7-1658
Braziliya	0800-891-4169
Chili (AT&T)	171 00 311
Chile (AT&T - Ispan operatori)	171 00 312
Chili (AT&T)	800-225-288
Chili (Telefonica)	800-800-288
Chili (ENTEL)	800-360-311
Chili (ENTEL - Ispan operatori)	800-360-312
Chili (Pasxa oroli)	800-800-311
Chili (Pasxa oroli - Ispan operatori)	800-800-312
Chili (Ingliz tilida tezkor qo'ng'iroq)	855-225-7066
Xitoy (Janubiy) China Netcom Group	10-800-711-0635
Xitoy (Shimoliy) China Telecom South	10-800-110-0581
Kolumbiya	01-800-911-0010
Kolumbiya (Ispan operatori)	01-800-911-0011
Kolumbiya (Ingliz tilida tezkor qo'ng'iroq)	855-225-7066
Chex respublikasi	800-142-716
Ekvador	1-800-225-528
Ekvador (Ispan operatori)	1-999-119
Ekvador (Ingliz tilida tezkor qo'ng'iroq)	855-225-7066
Fransiya	0800-90-0198
Germaniya	0800-183-0860
Indoneziya	001-803-1-008-3251
Hindiston	000 800 919 1205
Italiya	800-788319
Yaponiya	0034-800-900066
Yaponiya	00531-11-4454
Yaponiya	0044-22-11-2562
Yaponiya	0066-33-830191
Koreya respublikasi	00798-1-1-005-6156
Malaysiya	1-800-81-2303
Niderlandiya	0800-022-0720
Ummon	800 50050
Peru (Telephonica - Ispan operatori)	0-800-50-000
Peru (Telephonica)	0-800-50-288
Peru (Americatel)	0-800-70-088
Peru (Ingliz tilida tezkor qo'ng'iroq)	855-225-7066
Polsha	0-0-800-111-1582
Portugaliya	800-8-11604
Rossiya	8 (800) 301-45-91
Saudiya Arabistoni	800 850 0096
Ispaniya	900-97-1039
Tayvan	00801-10-4062
Birlashgan Qirollik (va Shimoliy Irlandiya)	0808-234-6711
Amerika Qo'shma Shtatlari va Kanada	1-877-272-9726
O'zbekiston	0^641-744-0010



IntegrityLine:



IntegrityOnline:

airproducts.com/integrityonline

Air Products kompaniyasi Korporativ etika kodeksining buzilishlari yoki buzilishiga shubhalarni ma'lum qilish yoki muammolarni bayon qilish imkonini beruvchi manbalarga ega.. Ayrim mamlakatlardagi qonunlar Korporativ etika kodeksining buzilishlari haqida xabar qilish jarayoni, vositalari va/yoki ruxsat etilgan toifalarini belgilaydi yoki cheklaydi. Mahalliy qonunchilikda ruxsat etilgan mavjud manbalardan foydalaning.

Kontaktlar ro'yxati: www.airproducts.com/codeofconduct.

Onlayn xabar qilish: www.airproducts.com/integrityonline.

Telefon orqali xabar qilish tafsilotlari: www.airproducts.com/integrityline.

**Batafsil ma'lumot uchun,
biz bilan bog'lanish:**

Kompaniya bosh ofisi

Air Products and Chemicals, Inc.
1940 Air Products Blvd.
Allentaun, PA 18106-5500
T 610-481-4911
(AQSH va Kanadadan tashqarida
+1-610-481-6799)
F 610-481-5900



tell me more
airproducts.com